



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



TURLI MAMLAKATLARDA MAKTAB TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sino Habibov

moaaz2277@icloud.com

Annotatsiya. Maqola turli mamlakatlarning maktab ta'lism tizimlaridagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqadi. Avstraliya, Tayvan va Finlyandiya ta'lism tizimlari misolida maktab ta'liming tashkil etilishi, o'quv yili, uy vazifasi, maktab formasi va baholash tizimlari tahlil qilinadi. Har bir mamlakatning ta'lism tizimi o'ziga xos tarixiy an'analar va zamonaviy talablarga asoslanib shakllangan. Maqola ushbu tizimlarning o'quvchilar hayotiga ta'sirini va ularning o'ziga xos jihatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: ta'lism tizimi, maktab ta'limi, Avstraliya, Tayvan, Finlyandiya, maktab formasi, baholash tizimi, o'quv yili.

Abstract. This article examines the distinctive features of school education systems in various countries, focusing on Australia, Taiwan, and Finland. It analyzes the structure of the school year, homework policies, school uniforms, and grading systems. Each country's education system is shaped by its historical traditions and modern requirements. The article highlights the impact of these systems on students' lives and their unique characteristics.

Keywords: education system, school education, Australia, Taiwan, Finland, school uniform, grading system, academic year.

Аннотация. Статья рассматривает особенности школьных образовательных систем в различных странах на примере Австралии, Тайваня и Финляндии. Анализируются структура учебного года, политика в отношении домашних заданий, школьная форма и системы оценивания. Образовательная система каждой страны сформирована на основе её исторических традиций и современных требований. Статья освещает влияние этих систем на жизнь учащихся и их уникальные черты.

Ключевые слова: образовательная система, школьное образование, Австралия, Тайвань, Финляндия, школьная форма, система оценивания, учебный год.

Asosiy qism

Har bir mamlakat o'ziga xos tarixiy an'analarini va zamonaviy talablari asosida ta'lism tizimini shakllantiradi. Bu tizimlar maktab ta'liming tashkil etilishi, o'quv yili davomiyligi, uy vazifasi, maktab formasi va baholash tizimlari kabi jihatlarda turli bo'ladi. Quyida Avstraliya, Tayvan va Finlyandiya maktab ta'lism tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Avstraliya: Erkin muhit va ikkita majburiy fan

Avstraliyada maktab ta'limi 12 yil davom etadi va 5 yoshdan boshlanadi. O'quv yili yanvar oxiri yoki fevral boshida boshlanib, dekabr boshlarida yakunlanadi. Yil davomida





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



har chorak orasida 10 kunlik ta'tillar bo'ladi. Darslar ertalab soat 08:30 da boshlanadi va 15:00 gacha, katta tanaffuslar bilan davom etadi. Uy vazifasi odatda berilmaydi, bu esa o'quvchilarga darsdan tashqari ko'proq erkin vaqt beradi.

Maktab formasi majburiydir. 13 yoshgacha o'g'il bolalar shortik kiyishadi, keyinroq shimga o'tadilar. Qizlarning kiyimida getralar ajralib turadi, barcha o'quvchilar esa shlyapa kiyishlari shart. Yuqori sinf o'quvchilarining formasi boshlang'ich sinflarnikidan farq qiladi va ularning boshlang'ich sinf hududiga kirishi ta'qiqlanadi.

Ta'lim tizimida yettinchi sinfgacha barcha fanlarni bir yoki ikkita o'qituvchi o'qitadi. O'quvchilar sinfda erkin muhitda o'qishadi: yurishlari, gaplashishlari yoki hatto polda o'tirishlari mumkin. Sakkizinchisinfidan boshlab o'qituvchilar soni ko'payadi, lekin faqat matematika va ingliz tili majburiy fanlar hisoblanadi, qolgan fanlarni o'quvchilar o'zları tanlaydilar. Baholash tizimi 100 ballik bo'lib, boshlang'ich sinflarda baholar qo'yilmaydi. Uchinchi sinfidan boshlab har ikki yilda imtihonlar o'tkaziladi, yiliga ikki marta baholar ota-onalarga pochta orqali yuboriladi.

Tayvan: Intizom va tozalik

Tayvanda maktab ta'limi 9 yilgacha davom etadi va 6 yoshdan boshlanadi. O'quv yili 10 oy davom etadi, haftasiga 5 kun dars bo'ladi. Har kuni ertalab soat 07:30 da o'quvchilar badantarbiya va maktabni tozalash bilan shug'ulanishadi. Tozalik qattiq nazorat qilinadi, hatto oliv ta'lim muassasalarida talabalar hududni tozalash uchun zachyot olishadi. Agar tozalik sifatsiz bo'lsa, bu majburiyat cho'ziladi. Darslar 08:30 da boshlanib, 16:30 gacha davom etadi, tushlik uchun 30 daqiqalik tanaffus beriladi.

2018-yilda Tayvanda ta'lim reformasi boshlandi, unga ko'ra yuqori sinf o'quvchilari fanlarning ko'pini o'zları tanlaydilar va shaxsiy dars jadvaliga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, ta'tilda uy vazifasi berilmaydi, chunki hukumat bolalarning ko'proq dam olishini maqsad qilgan. Maktab formasi majburiydir, uni kiyishdan bosh tortgan o'quvchilarga qo'shimcha tozalik ishlari kabi jazo qo'llaniladi. Tayvan maktablari PISA reytingida dunyoning eng yaxshi ta'lim muassasalari orasida bir necha bor joy olgan.

Finlyandiya: Imtihonsiz ta'lim

Finlyandiyada maktab ta'limi 9 yil davom etadi va 7 yoshdan boshlanadi. O'quv yili avgustda boshlanib, mayda yakunlanadi. Kuzda 3-4 kunlik, yangi yilda ikki haftalik va bahorda qisqa ta'tillar mavjud. Darslar ertalab soat 08:00 yoki 09:00 da boshlanadi, tushlikgacha davom etadi. Har bir dars 45 daqiqa, tanaffuslar esa 15 daqiqa. Uy vazifasi deyarli berilmaydi, bu esa o'quvchilarga stresssiz ta'lim olish imkonini beradi.

Finlyandiyada imtihonlar bekor qilingan, bilimlar o'rta baho tizimi orqali baholanadi. To'rtinchi sinfidan boshlab baholar qo'yila boshlanadi. 2020-yilda boshlangan reforma doirasida fanlar alohida o'qitilmay, bir mavzuga oid bir nechta fanlar birlashib o'rganiladi. Masalan, iqlim o'zgarishi mavzusi bo'lsa, ekologiya, tabiatshunoslik, iqtisodiyot va siyosat birgalikda o'qitiladi. Bu mashg'ulotlar 3 soatgacha davom etadi. Finlyandiya maktablari PISA reytingida doimiy ravishda yuqori o'rnlarni egallaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xulosa

Avstraliya, Tayvan va Finlyandiya ta’lim tizimlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Avstraliyada erkin muhit va minimal uy vazifasi, Tayvanda intizom va tozalik, Finlyandiyada esa imtihonsiz va mavzuga yo‘naltirilgan ta’lim ustunlik qiladi. Har bir tizim o‘quvchilarning bilim olishi va shaxsiy rivojlanishiga o‘ziga xos tarzda hissa qo‘sadi. Bu mamlakatlarning ta’lim tizimlari o‘z an’analari va zamon talablariga moslashgan holda global miqyosda muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatmoqda.

Adabiyotla ro‘yxti

1. Australian Education Review. (2023). *Journal of Educational Policy and Practice in Australia*. Canberra: Australian Council for Educational Research.
2. Taiwan Journal of Education. (2022). *Educational Reforms and Practices in Taiwan*. Taipei: National Taiwan Normal University Press.
3. Finnish Education Journal. (2021). *Innovations in Finnish School Education*. Helsinki: Finnish National Agency for Education.
4. International Journal of Comparative Education. (2024). *Global Perspectives on School Education Systems*. London: Routledge.

